XALQ DEPUTATLARI SHO‘RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 - yil 14 - iyul VI-48-86-8-120-K/22 Sho‘rchi tuman hokimligi

Xalq deputatlari Sho‘rchi tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 sentyabrdagi PF–6075-son “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 sentyabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan 2021 yil 1 iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (N.Shoyeva) mazkur qarorni rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Bo’ronov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **Xudoyberganov B.X**

Xalq deputatlari Sho‘rchi tuman
Kengashining
2022 yil 14 iyuldagi
VI-48-86-8-120-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari tuman Kengashining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Xalq deputatlari Sho’rchi tuman Kengashining 2016 yil 30 dekabrdagi 87/23-05-sonli Sho’rchi tumani mahalliy budjetining 2017 yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Xalq deputatlari Sho’rchi tumagn Kengashining 2017 yil 31 dekabrdagi 123/35-05-sonli Sho’rchi tuman mahallny budjetining 2018 yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. Xalq deputatlari Sho’rchi tumagn Kengashining 2018 yil 27 dekabrdagi 165/46-05-sonli Sho’rchi tumani maxyalliy budjetning 2019 yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.

4. Xalq deputatlari Sho’rchi tumagn Kengashining 2020 yil 28 dekabrdagi 100/VI-XXV-sonli Sho’rchi tumanining 2021 yilgi mahalliy budjetini tasdiklash to‘g‘risida”gi qarori.